

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNING O'QITILISHIDA MULTIMEDIA VOSITALARINING AFZALLIKLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10163780>

Maxmudov Y.G'

G'aniyeva Gulhayo Islom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

" Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiyasi

Bugungi kunda tabiiy fanlarni multimedia vositalari asosida o'qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari darsda o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish sohasida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada samaradorlikka erishish hamda multimedia vositalarining rolini va ta'sirini oshirish, mavjud muammolarni konseptual o'rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar

"tabiat", "tabiat va biz", "mediata'lim", "metodlar", "ta'lim texnologiyalari", "multimedia vositalari", "zamonaviy dasturlar", VR qurilmala

Mediata'lim asosida ishlab chiqilgan elektron o'quv qo'llanmadan foydalanib tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi- uzluksiz ta'lim tizimida, shuningdek, ta'lim muassasasidan tashqarida, hamda mustaqil ta'lim olishda ham tabiat haqidagi bilimlar sistemasini shakllantiradi va o'z ichiga quyidagi pedagogik maqsadlarni qamrab oladi:

Ta'limiy: tabiiy fanlarga oid bilimlarni egallash - boshlang'ich tabiat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda quyidagi asosiy va maxsus bilimlar sistemasini o'z ichiga oladi:

- tabiiy fanlarni fan sifatida rivojlanishi;
- uning asosiy bo'limlari, usullari va vositalarini bilish va tushunish;

Tarbiyaviy: Tabiat haqidagi umumlashgan bilimlarni berishda, dunyoning yaralishidagi umumiy qonuniyatlarni tushuntirish, insonning tabiatdagi o'rni, uning tabiatga munosabatini umuminsoniy qadriyatlar orqali tushuntirish yo'li bilan o'sib kelayotgan avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, bilish imkoniyatlarini shakllantirish, ularni mustaqil va mantiqiy fikr yuritishga,

ma'lumotlarni va olgan bilimlarini umumlashtira olishga, oddiy mantiqiy fikrlashdan tortib chuqur nazariy tahlillar qilishga o'rgatish.

Media atamasi lotinchadan "medium", ya'ni vosita, usul degan ma'nolarni anglatib, turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini bildiradi.

A.A.Jurinning fikriga ko'ra "media"-lotincha "media" so'zidan olingan bo'lib, "vosita", "vositachi", yanada aniqrog'i, "ommaviy axborot vositalari" degan ma'n aydi.

Axborot madaniyati - o'quvchilarning kundalik hayoti va faoliyatida axborot texnologiyalarining barcha turlaridan o'quv - bilish jarayonida maqsadli foydalana olish ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar, ta'lim tizimi oldida o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifalari turibdi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining o'zi maslahatchi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi. O'qituvchi axborot manbai, tarqatuvchi funktsiyalarini axborot texnologiyalari zimmasiga yuklaydi.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishda media, ya'ni internet, televideniya, radio, kino, video va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish samarali ekanligi o'z isbotini topmoqda.¹⁰⁶ Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimida ham mediata'lim vositalari asosida elektron axborot ta'lim resurslari (elektron darsliklar, videodarslar, mobil ilovalar, elektron nazorat testlari, multimedia ilovalari ba .)ni yaratib, o'quvchilarga sifatli va zamonaviy ta'lim berishning ijobiy xususiyatlari haqida juda ko'plab ma'lumotlar va fikrlar keltirish mumkin. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

- ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishi kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Aytish joizki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jahon Valyuta Fondi, Umumjahon banki, Yevropa Ittifoqi komissiyasi kabi nufuzli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan

¹⁰⁶ To'lqin E. Mediata'lim: yangi ta'lim usuli sifatida. - Toshkent, 2018. Elektron resurs: www.sharh.uz 36-37-b.

seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch hosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovor.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarish. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Hozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni mamlakatimizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'q. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Norbo'taev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Zamonaviy ta'lim. - Toshkent, 2016. - № 6. - S. 34 - 39.
2. Narbayev A.B. Mediatexnologiya vositalaridan foydalanish astronomiya o'qitishda samaradorlikni oshirishning muhim omili. //O'zMU xabarlari. -Toshkent, 2018. -B. 268-272.
3. Norbo'taev X., Eshquvvatov Sh. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi // Zamonaviy ta'lim. - Toshkent, 2015. - № 6. - B. 67 - 68.
4. Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan) -T.: Meros,1991. -47
5. Bahromov A.D., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. -T.; Cho'lpon, 2019 y.-126 b.
6. Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность // Теория и практика образования в современном мире: материалы Междунар. науч. конф. Июль. 2014 г. - Санкт-Петербург, 2014. - СПб.: Сатис, 2014. - С. 1 - 2.
7. Sharipova D., Xodieva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi - T.: Barkamol fayz mediya, 2018. - 453 b.
8. Электронный ресурс: <https://ru.wikipedia.org/wiki>
9. Электронный ресурс <https://ru.wikipedia.org/wiki/> Вентцель, Константин Николаевич
10. Электронный ресурс <https://cyberleninka.ru/.../zankova-novye-vozmozhnosti-na-primeremuzy>.